



## VALERIANA O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA XALQ

## TABOVATIDA QO'LLANISHI

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ РАСТЕНИЯ ВАЛЕРЬЯНА И ПРИМЕНЕНИЕ В  
НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕCHEMICAL COMPOSITION OF VALERIAN PLANT AND USE IN FOLK  
MEDICINE

<sup>1</sup>Abdugafforov F.S, <sup>2</sup>Raximova I.M.

<sup>1</sup>Andijon davlat universiteti kimyo kafedrasida PhD dotsent va

<sup>2</sup>Andijon davlat universiteti 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya** Maqolada asorun "Valeriana" o'simigining kimyoviy tarkibi, tuzulishi hamda ta'sir qilish mexanizmi keng yoritib berilgan. Shuningdek maqolada valeriana o'simligining ayrim yurak qon-tomir, asab kasalliklarida qo'llanishi samarali ta'sirlari haqida ilmiy dalillarga asoslangan fikrlar keltirilgan

**Аннотация** В статье подробно описаны химический состав, строение и механизм действия травы «Валериана». Также в статье приведены основанные на научных данных мнения об эффективном воздействии растения валерианы при некоторых сердечно-сосудистых и нервных заболеваниях.

**Abstract** In the article, the chemical composition, structure, and mechanism of action of the herb "Valeriana" are described in detail. Also, the article contains opinions based on scientific evidence about the effective effects of the valerian plant in some cardiovascular and nervous diseases.

**Tayanch so'zlar** alkaloid, nevroz, efir moyi, izovalerian kislota, murakkab efir, antidepressant.

**Ключевые слова:** алкалоид, невроз, эфирное масло, изовалериановая кислота, сложный эфир, антидепрессант.

**Keywords:** alkaloid, neurosis, essential oil, isovaleric acid, complex ether, antidepressant.


Valeriana o'simligi dorivor xisoblanib, yurak-qon tomir, asab tizimi kasalliklarida samarali foydali ta'sir ko'rsatadi. Valeriana ildiz va ildizpoyasi tarkibida 0,5—2% efir moyi



va sof xolda izovalerian kislota bor. Valeriananing efir moyi asosan ingichka ildizlarda izovalerian kislota esa yo'gon va qari ildizpoyalarda ko'prok bo'ladi. Bu moy tarkibida izovalerian kislolaning borneol spirti bilan xosil qilgan murakkab efiri - bornil izovalerianat, shuningdek, borneolning sirka, chumoli kislotalar bilan xosil qilgan murakkab efiri xamda terpineol, pinen, kamfen, azulen, sof xoldagi borneol, izovalerian kislota va boshqa birikmalar bo'ladi [1].

Tabobatda yurak va qon-tomir kasalliklarini oldini olish hamda davolashda, ayniqsa asab sistemasini tinchlantirishda dorivor o'simliklar va ulardan olinadigan dori vositalari keng miqyosda ishlatiladi. Dorivor valeriana ana shunday dorivor o'simliklar sarasiga kiradi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ayrim xo'jaliklarda chunonchi Namangan viloyati Pop tumanidagi Abu Ali ibn Sino nomli ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaligida va Toshkent viloyati Y.Oxunboboyev nomli ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaligida hamda Parkent tumanidagi ayrim shaxsiy xo'jaliklarda dorivor valeriana ekib o'stirish borasida ma'lum ijobiy ishlar amalga oshirildi va Respublikamizning tog'li hududlarida mazkur dorivor o'simlikning yetishtirish mumkinligi isbotlandi. Hozirgi vaqtda respublikamizning ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaliklarida o'ndan ortiq dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda, valeriana shular jumlasidandir.

Asab sistemasi kasalliklarida foydalanilganda, tinchlantiruvchi sedativ tasirga ega xisoblanadi, kimyoviy tuzilish va fizik-kimyoviy xususiyatlardagi ba'zi o'xshashliklarga qaramay, ularning farmakoterapevtik ta'sirida farqlar mavjud [2].




Bornilizovaleriant

*Qo'shimcha moddalar* alkaloidlar, valerid glikozid, oshlovchi moddalar, saponinlar, kistotalar va boshqa moddalar bo'ladi. Valeriananing yangi yig'ilgan yer ostki organlari tarkibida valepotriatlar (0,5—2% miqdorida) bo'ladi. Ular polisitsik lopentapiranning izovalerian, sirka, izokapron va J - atsetoksiizovalerian kislotalari bilan xosil qilgan efirlari




bo'lib, nam ta'sirida tez parchalanadi. Digidrovaltrat, valexloin, valerandin va boshqalar ajratib olinadi.


*Farmakologik xususiyatlari.* Valeriana o'simligining ildiz va ildizpoyasi tarkibida 0,5-2% efir moyi va sof holda izovalerian kislota bor. Valeriananing efir moyi asosan ingichka ildizlarda, izovalerian kislota esa yo'g'on va qari ildizpoyalarda ko'proq bo'ladi. Bu moy tarkibida izovalerian kislolaning borneol spirti bilan hosil qilgan murakkab efiri-bornilizovalerianat, shuningdek, borneolning sirka, chumoli kislotalar bilan hosil qilgan murakkab efiri hamda terpeneol, pinen, kamfen, azulen, kessil spirti (proazulen), limonen. sof holdagi borneol, izovalerian kislota va boshqa birikmalar bo'ladi [3].



Asetoksivaltrat



Izovalerian kislota



Asetoksiizovalerian kislota

### *Izovalerian kislota, Valtrat, Asetoksiizovalerian kislota*

*Tasir qilish mexanizmi* nerv sistemasini tinchlantirish (uyqusizlikda, asab qo'zg'alishi davrida va nevroitik rivojlangan simptomatikani (vahima, qo'rquvni) kamayishi bilan namoyon bo'lishi va boshqa asab kasalliklarida) hamda yurak faoliyatini normal ishlashi uchun foydalaniladi [4].

*Maxsulot tayyorlash.* Yovvoyi xolda o'sadigan valeriananing mevalari pishib to'kilgandan so'ng (valeriananing tabiiy sharoitda kupayishi uchun) yer ostki qismini belkurak, ketmon yoki boshqa asbob bilan kovlab olinadi. Plantatsiyalarda o'stirilgan valerianani esa ikkinchi yili maxsus konstruktsiyali valeriana plugi yordamida kovlab yig'ib olinadi va ildizpoyasi poyadan ajratiladi. *Dorivor preparatlari.* Damlama, nastoyka, qaynatma, valeriana nastoykasi, quruq ekstrakt, validol (tabletkaga yoki eritma xolida



chiqariladi). Valeriana nastoykasi yurak kasalligida ishlatiladigan kardiovalen va boshka reparatlar tarkibiga kiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.R. Asqarov “Tabobat qomusi” Toshkent 2019 yil. [ 198, 250b]
2. I.R.Asqarov “Sirli tabobat” – T: << Fan va texnologiyalar nashriyot- matbaa uyi >>, 2021. 1084 bet.
3. S.S. Azizova “Farmakologiya”. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2006-yil.[ 200, 210, 288b]
4. M.N. Maxsumov, M.M. Malikov Farmakologiya. T. Ibn Sino nash. 2006 y.[230,256,366,367]